



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI

### AXBOROT XATI

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universitetining Jismoniy madaniyat fakultetida 2023-yil 27-noyabr kuni **“Ta'lif tizimida jismoniy tarbiya va sportni ommaviylashtirishning dolzarb muammolari”** mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani o'tkaziladi.

Shu munosabat bilan Siz rahbarlik qilayotgan ta'lif muassasasi professor-o'qituvchilar, ilmiy xodim va mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar, talabalar hamda soha mutaxassislarini anjumanda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etishga taklif etamiz.

**Ilmiy-amaliy anjumanning maqsadi:** bugungi kunda ta'lif muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchi va talabalarning sog'lom turmush tarzini jismoniy tarbiya va sport asosida tashkil etish va takomillashtirish, shuningdek ta'lif tizimining barcha bo'g'inlarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishdagi tajribalar va ularning natijalari bo'yicha ilmiy asoslangan fikrlar muhokamasi.

### ANJUMANDA QUYIDAGI YO'NALISHLAR BO'YICHA SHO'BALAR TASHKIL QILINADI

- ↗ **1-sho'ba:** Maktabgacha ta'lif tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini jismoniy tarbiyasini takomillashtirishning muammo va yechimlari.
- ↗ **2-sho'ba:** Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lif muassasalarini o'quvchilarining jismoniy tarbiya va sportini yanada takomillashtirishning muammo va yechimlari.
- ↗ **3-sho'ba:** Professional va oliy ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiya va sportni yanada ommaviylashtirishning muammo va yechimlari.
- ↗ **4-sho'ba:** Jismoniy madaniyat ta'limini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida takomillashtirishning muammo va yechimlari.
- ↗ **5-sho'ba:** Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirishning muammo va yechimlari.

## **Taqdim etiladigan ma’ruza tezislari (maqolalar)ni rasmiylashtirishga qo‘yilgan talablar:**

Barcha maqolalar tahririyat tomonidan anonimlashtirilgan holatda tekshiriladi va tekshiruvdan ijobiy o‘tgan maqolalar nashr etiladi. Maqola matnida keltirilgan ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar javobgardirlar.

Maqola va tezislар “Antiplagiat” dasturi orqali tekshiriladi, matnning haqiqiyligi 65% dan kam bo‘lmасligi kerak.

- Matnlar hajmi A4 formatda, Microsoft Word matn muharriri yordamida, Times New Roman 14 o‘lchamli shriftda, 1,5 interval oraliqda masofa tashlangan holda tayyorlanadi, (yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm va o‘ngdan 1,5 sm);

- birinchi qatorda maqola yoki tezisning nomi sahifaning o‘rtasida bosh va qalin harflarda, ikkinchi qatorda muallifning ismi-sharifi, ilmiy darajasi, unvoni, ish joyi, lavozimi, telefon raqami va elektron manzili ko‘rsatiladi;

- maqola va tezislар 1 (bir) nusxada tahrir qilingan holda elektron shaklda tashkiliy qo‘mitaga taqdim etiladi;

- maqola va tezislarning hajmi 3 betdan kam bo‘lmagan va 5 betdan oshmagan holda bo‘lishi talab etiladi;

- mualliflar bayon etgan ma’lumotlarning ilmiy-nazariy asoslanganligi va metodologik jihatlari uchun mas’ul;

- maqola va tezislarda rus, ingliz va o‘zbek tillarida qisqa annotatsiya, kalit (tayanch iboralar) so‘zlar ko‘rsatiladi;

- tezis yoki maqola oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati beriladi, barcha havola (snoska)lar tik qavs ichida ko‘rsatiladi [1];

- Anjuman materiallari o‘zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi;

Talablarga javob bermaydigan holda rasmiylashtirilgan va belgilangan muddatdan kechikib yuborilgan materiallar qabul qilinmaydi hamda chop etilmaydi;

To‘plamga UDK, BBK, kutubxona indekslari kitob raqami beriladi.

Ishtirokchilar konferensiyaning yalpi majlisida “**Eng yaxshi maqola**” va “**Eng yaxshi ma’ruza**” va bir qancha shu kabi nominatsiyalar sertifikat bilan taqdirlanadilar.

To‘plam mualliflar hisobidan chop ettiriladi. Har bir maqola yoki tezis uchun badal puli **40 000 (qirq ming)** so‘m qilib belgilangan.

Badal puli naqd to‘lov shaklida yoki pul o‘tkazmalari (*Click*) orqali qabul qilinadi. Click orqali to‘lovlari **9860 0101 1809 7111 (Muqimov Maruf)** raqamiga amalga oshiriladi. Click orqali pul o‘tkazmalari amalaga oshirilganda “**konferensiya uchun**” deb belgilanishi lozim bo‘ladi.

**Eslatma:** Materiallar **2023-yilning 10-noyabrga** qadar qabul qilinadi.

**Konferensiya ishi koordinatori:** JDPU Jismoniy madaniyat fakulteti.

**Manzil:** 130100. Jizzax shahar, Sharof Rashidov ko‘chasi, 4-uy.

**Telegram:** [@Muqimov\\_M](#), [@RustamEgamberdiyev](#)

**Tel:** +99894 575-24-42, +99891 565-60-56